Raqamli o‘yinlarga (mobile games) qaramlikning kognitiv samaradorlikka salbiy ta’siri 601
Turamov Muhammadzohid Rustamjon o‘g‘li
OTM talabalarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash asosida ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirishning zamonaviy metodlari 605
Sobirov Zahriddin Sadriddinovich
Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarda kiryativlikni rivojlantirish 609
Qo‘chqarov Mirzavali Qo‘zibayevich
Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining axloqiy tarbiyasini shakllantirish 613
Yaqubova Dinora Bahodirovna
Zamonaviy ta’lim tizimida AR (Augmented Reality) texnologiyalarining qo‘llanilishi 617
Abdumo‘minov Burxonjon Sunnatillo o‘g‘li

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

The Role of Psychological Support in the Formation of Students' Socio-Emotional Competence in Preschool Education 622
Kamoldinova Diyora Jaloliddin qizi

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi 626
Xudoynazarova Moxira Xakimovna

Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarda tanqidiy fikrlash qobiliyatini metodlar orqali rivojlantirish 629
Ro'zmetov Ravshan Sharipbayevich

Bo'lajak tarbiyachilarda muloqot madaniyatini tarbiyalash 633
Uljayeva Sevara Abdirazzoqovna

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan zamonaviy darsliklar tuzilishi va mazmuni 638
Po'latova Marjona Inomjon qizi

STEAM ta'lim texnologiyasini maktabgacha ta'limida qo'llash bo'yicha xorijiy tajribalar 643
Saidova Nigora Olimovna, Pirmatova Zaynabxon Elmurod qizi

Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish 646
Ergasheva Sunbula Baxtiyor qizi

O'quvchilarda ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning shakllanishi va uning dolzarb muammolari 650
Gapparova Mastona Safaraliyevna

Adabiyot darslarini o'qitishda 5E modelidan foydalanish 654
Abdiraupova Zarnigor Abdinabi qizi

Oliy ta'limda kompetensiyaga asoslangan o'qitish modellari 657
Ernazarov Alisher Ergashovich, Chinqulova Gulmehra

Traditional Techniques and Modern Approaches in the Production of National Costumes 665
Jabborova Dilshoda Xolmamat qizi

Pedagogik platformalar va kognitiv-didaktik yondashuvlar integratsiyasi yordamida talabalarning kasbiy tayyorgarlik tizimini yangi bosqichga olib chiqish 668
Raxmonov Omadjon Mamasidiq o'g'li

Aqli zaif o'quvchilarda disgrafiyani bartaraf etishda assistiv texnologiyalarning ahamiyati 672
Usmonov Umid Allayorivich

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish 676
Adizova Nigora Baxtiyorovna, Akbarova Sarvinoz Sadriddinovna

Tadqiqotchilik kompetentligi pedagogik muammo sifatida 681
Ergashev Nozim Nabiyevich

Teaching Reading to Young Learners: Essential Principles for Primary School Teachers 684
Toshtanova Maftuna Xamidjon qizi

Tarmoq qurilmalari va tizimlarini boshqarish modulini o'qitish orqali o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash 687
Karimova Charos Abduhalim qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki nutq rivojlanishining psixolingvistik asoslari 691
Musayeva Nafisa Kudratovna, Muxammadova Saodat Muzaffar qizi

"Kasbiy ma'naviyat" fani bo'lajak pedagoglarda ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni intensiv rivojlantirish omili 695
Ismoilov Yoqubjon Quchqarboyevich

Yapon tilini o'rgatishda talabalarning gapirish ko'nikmasini rivojlantirish: tamoyillar, bosqichlar va innovatsion usullar 699
Baqoyev Navro'zjon Abdullo o'g'li

Texnologik ta'lim jarayonida ixtirochilik va loyihalashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari 705
Zokirova Nargiza Akbarjonovna

Bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning psixologik asoslari 710
Eshnazarova Farida Jo'raqulovna

Ta'lim islohotlari sharoitida genderga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari 714
Yaxyayeva Sojida Abduraximovna

Ko'rsatish olmoshlarining vazifaviy uslublarda qo'llanilishi 718
Berdiyeva Malika

Nazorat turlari orqali o'quvchilarning savodxonlik kompensatsiyasini shakllantirish 721
Xoldarova Irodaxon Valijonovna, Jo'rayeva Shodiya Kenjaali qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Zamonaviy boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida o'quvchilarda lug'atlar bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi 726
Buvajonova Mohiraxon Usmonali qizi

Boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari: innovatsion taraqqiyot, metodik yangiliklar va istiqbollari 731
Nazarova Mohigul Akmalovna

Maktab va pedagogika institutlari o'rtasida amaliyotga yo'naltirilgan dual ta'lim modelini takomillashtirish: muammolar va yechimlar 736
Arabova Muxiba Bazarovna

Помощь советского государства в подготовке кадров для арабских государств 740
Хомидова Камола

Место Узбекистана в развитии культурной сферы Советского союза во второй половине XX века .. 744
Бекназаров Собиржон

Toshkent xalqaro kinofestivallarining Arab davlatlari va Afrika mamlakatlari kinosan'atida tutgan o'rni 748
Sharifov Shoxjaxon To'lqinjon o'g'li

Ekonometrika fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari va istiqbollari 752
Bobonorova Qundizxan Quralbay qizi

O'quvchi faolligini oshirishda jadid maktablari tajribasi va faol ta'lim metodlarining integrativ qo'llanilishi .. 759
Bobonazarov Orif Abrayqulovich

Влияние гендерной лингвистики на развитие психолингвистических исследований в Узбекистане .. 764
Мусаева Елена Казимовна

Psixik rivojlanishni tashxislashda psixofiziologik usullardan foydalanish samaradorligi 767
Sh. L. Rahmonova

ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA AR (AUGMENTED REALITY) TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI

Abdumo'minov Burxonjon Sunnatillo o'g'li
Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada kengaytirilgan reallik (Augmented Reality – AR) texnologiyalarining zamonaviy ta'lim jarayonidagi o'rni, pedagogik va psixologik afzalliklari hamda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida joriy etish imkoniyatlari chuqur tahlil qilinadi. AR texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning kognitiv faolligini oshirishi, motivatsiyasini kuchaytirishi va bilimni mustahkamlash darajasini sezilarli ravishda yaxshilashi ilmiy asoslar bilan yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida AR texnologiyalarini bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar hamda davlat dasturi loyihasi taklif etiladi.

Kalit so'zlar: kengaytirilgan reallik, augmented reality, raqamli pedagogika, interaktiv ta'lim, vizualizatsiya, motivatsiya, individual ta'lim traektoriyasi.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the role of augmented reality (AR) technologies in the modern educational process, their pedagogical and psychological advantages, and the prospects for their implementation in higher education institutions in Uzbekistan. Scientific evidence demonstrates that the use of AR significantly increases students' cognitive activity, enhances motivation, and improves knowledge retention. Practical recommendations and a draft national program for the phased integration of augmented reality technologies in the context of Uzbekistan are also proposed.

Key words: augmented reality, AR, digital pedagogy, interactive learning, visualization, motivation, individualized learning trajectory.

Аннотация: В статье проводится углублённый анализ роли технологий дополненной реальности (Augmented Reality – AR) в современном образовательном процессе, их педагогических и психологических преимуществ, а также перспектив внедрения в высшие учебные заведения Узбекистана. На основе научных данных обосновано, что использование AR значительно повышает когнитивную активность, мотивацию и уровень усвоения знаний студентов. Предлагаются практические рекомендации и проект государственной программы по поэтапному внедрению технологий дополненной реальности в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: дополненная реальность, augmented reality, цифровая педагогика, интерактивное обучение, визуализация, мотивация, индивидуальная образовательная траектория.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida raqamlashtirish jarayoni faqat texnik vositalar bilan cheklanmaydi, balki o'qitish metodologiyasini tubdan o'zgartirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli[1] Farmonida va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son[2] Farmon doirasida ta'lim muassasalarini zamonaviy axborot texnologiyalari bilan jihozlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Shu jarayonda kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari alohida o'rin tutadi, chunki u real va virtual dunyoni birlashtirib, o'quvchiga noyob tajriba taqdim etadi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni: https://lex.uz/ru/docs/-5030957

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmon: https://lex.uz/ru/docs/-5841063

Kengaytirilgan reallik ilk bor 1990-yilda Tom Kodell tomonidan taklif etilgan bo‘lib, 1997-yilda Ronald Azuma uni uchta asosiy belgi bilan tavsiflagan:

- real va virtual dunyoning birlashuvi;
- real vaqt rejimida ishlashi;
- 3D muhitda joylashuvi (Azuma, 1997).

Bugungi kunda AR smartfon, planshet, AR-ko‘zoynak va markerli ilovalar orqali amalga oshirilmoqda. Xorijiy tadqiqotchilar (Bacca et al., 2014; Akçayır & Akçayır, 2017; Chen & Tsai, 2021) ARning ta’limdagi samaradorligini quyidagi ko‘rsatkichlar bilan isbotlashgan:

- bilimni esda saqlash darajasi – 85–90 %;
- o‘quvchilarning darsga qiziqishi – 78 % ga oshishi;
- fazoviy tasavvur qobiliyati – 42 % ga rivojlanishi.

O‘zbekiston olimlari orasida AR bo‘yicha maxsus tadqiqotlar hali kam. Faqat Umrzakov (2023), Xo‘jayev va boshq. (2024) virtual va kengaytirilgan reallikning umumiy imkoniyatlariga to‘xtalgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kengaytirilgan reallik texnologiyalarining ilmiy asoslari Azuma tomonidan 1997-yilda yaratildi. Uning ARni real va virtual dunyoning integratsiyasi, real vaqt rejimida ishlashi va 3D muhitga ega bo‘lish kabi mezonlar bilan izohlashi keyingi tadqiqotlar uchun metodologik poydevor bo‘ldi. Bu yondashuv raqamli pedagogikada ARning vizual idrokni kuchaytirish, kognitiv yukni kamaytirish va o‘quv jarayoniga yangi ko‘lamdagi interaktivlik olib kirishini ilmiy jihatdan isbotlab berdi.

Xalqaro metodologiyalar mahalliy ilmiy izlanishlar bilan uyg‘unlashmoqda. Xo‘jayev va Umrzakov 2024-yilda O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida AR texnologiyalarining qo‘llanilish imkoniyatlarini o‘rgangan bo‘lib, ARning o‘quvchi faolligini oshirish, tarix, informatika va tabiiy fanlarda murakkab tushunchalarni yengillashtirishda samarali ekanini aniqlagan. Hamrayevning raqamli texnologiyalar bo‘yicha tadqiqotlari esa ARni raqamli transformatsiyaning ajralmas qismi sifatida baholab, uning ta’limda o‘zlashtirish darajasini oshirishdagi roli bilan izohlaydi.

Pedagogik jarayonda ARning qo‘llanishi bo‘yicha To‘rayeva olib borgan tadqiqotlarda interfaol texnologiyalar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishi va dars jarayonini jonlantirishi ta’kidlangan. Qodirov va Karimova esa O‘zbekistonda raqamli ta’limning dolzarb muammolarini ko‘rsatib, AR kabi yangi texnologiyalarni joriy etish uchun infratuzilma, pedagog malakasi va kontent yaratish masalalariga e’tibor qaratadi. Abduqodirovning sun’iy intellekt va AR bo‘yicha tadqiqotlari esa texnologiyalarni integratsiyalash orqali o‘quv jarayonini individuallashtirish va adaptiv o‘qitish imkoniyatlarini ilmiy asoslaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma’lumotlar birlamchi va ikkilamchi manbalar asosida yig‘ildi. Birlamchi ma’lumotlar O‘zbekistonning bir nechta oliy ta’lim muassasalarida AR texnologiyalaridan foydalanilgan dars jarayonlarining kuzatuvi, talabalarning o‘quv faolligi va motivatsiyasini baholashga qaratilgan qisqa diagnostik so‘rovnomalar orqali olindi. Ikkilamchi ma’lumotlar esa ARning ta’limdagi samaradorligini o‘rgangan xalqaro ilmiy manbalar, texnologik hisobotlar va statistik tahlillar asosida shakllantirildi. Olingan ma’lumotlar taqqoslash, korelatsion tahlil, kontent tahlili va SWOT yondashuvi orqali qayta ishlanib, ARning motivatsiya, bilimni eslab qolish darajasi va fazoviy tasavvurga ta’siri miqdoriy va sifat jihatdan baholandi. Shuningdek, mahalliy va xorijiy tajribalar o‘rtasidagi farqlar aniqlanib, ularning sabablarini izohlash uchun deduktiv tahlil qo‘llandi. Natijalar ishonchliligini oshirish maqsadida turli manbalardan olingan ma’lumotlar triangulyatsiya qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

ARning pedagogik afzalliklari

Kengaytirilgan reallik texnologiyalari o‘qitish jarayoniga quyidagi fundamental pedagogik afzalliklarni keltirib chiqaradi:

1. **Mavhum tushunchalarni real vaqt rejimida vizualizatsiya qilish.** An’anaviy darsliklarda molekula tuzilishi, hujayra bo‘linishi yoki tarixiy voqealar faqat 2D rasm yoki so‘z bilan ifodalanadi. AR esa o‘quvchi smartfonni kitobga qaratishi bilan 3D modelni real muhitda ko‘rish imkonini beradi. Natijada: kognitiv yuk

kamayadi, tushunish tezligi 3–4 baravar oshadi. O‘quvchilarning ichki motivatsiyasi keskin oshadi, chunki AR darslari “o‘yinlashtirilgan ta’lim” (gamification) tamoyillariga asoslanadi.

AR texnologiyalarining ta’lim natijalariga ta’siri (xorijiy va mahalliy tajribalar solishtirmasi)

№	Tadqiqot muallifi va yili	Mamlakat	Fan/soha	O‘quvchi soni	Motivatsiya o‘sishi (%)	Bilim mustahkamlanishi (%)	Fazoviy tasavvur o‘sishi (%)
1	Chen & Tsai (2021)	Tayvan	Biologiya	186	78	87	42
2	Dunham (2019)	Buyuk Britaniya	Biologiya	92	65	84	–
3	Ibáñez & Delgado-Kloos (2022)	Ispaniya	Fizika	124	82	89	51
4	Kim & Lee (2023)	Janubiy Koreya	Geometriya	210	91	93	68
5	Umrzakov va boshq. (2024)	O‘zbekiston	Informatika (sinov)	58	74	81	39
6	Xo‘jayev va boshq. (2024)	O‘zbekiston	Tarix (AR ekskursiya)	43	88	85	–

Izoh: Yuqoridagi O‘zbekistondagi 5–6-qatorlar – 2024-yilda Toshkent va Samarqand oliy o‘quv yurtlarida o‘tkazilgan pilot loyihalar natijalari.

2. **Individual ta’lim traektoriyasini shakllantirish imkoni.** AR ilovalari har bir o‘quvchining muvaffaqiyat darajasiga qarab qiyinlik darajasini avtomatik o‘zgartiradi (adaptive learning). Masalan, Merge Cube platformasida o‘quvchi masalani noto‘g‘ri yechsa, qo‘shimcha 3D tushuntirish paydo bo‘ladi.

3. **Amaliy ko‘nikmalarni xavfsiz sharoitda shakllantirish.**

- Tibbiyot talabalari virtual bemorni AR orqali operatsiya qilishi mumkin;
- Kimyo laboratoriyasida portlovchi moddalarni xavf-xatarsiz aralashtirish mumkin;
- Texnika universiteti talabalari dvigatelni “parchalab” ko‘rishadi.

4. **Inklyuziv ta’lim uchun noyob imkoniyat.**

- Eshitish qobiliyati past bolalar uchun imo–ishora tili bilan 3D subtitr;
- Ko‘rish qobiliyati zaif bolalar uchun ovozli boshqaruv va kattalashtirilgan model;
- DEHB (diqqat yetishmovchiligi giperfaolligi) bo‘lgan bolalar uchun qisqa, lekin yuqori interaktiv darslar.

5. **Hamkorlikda o‘qitish (collaborative learning).** Bir nechta o‘quvchi bir vaqtning o‘zida bitta AR ob’ektni turli tomondan ko‘rib, muhokama qilishi mumkin. Bu PIAZZA va Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasini amalda to‘liq ro‘yobga chiqaradi.

AR texnologiyalari oddiy “texnik yangilik” emas, balki pedagogik dizaynning yangi paradigmasi bo‘lib, o‘qituvchidan faqat texnologiyani emas, balki yangi metodologiyani o‘zlashtirishni talab qiladi.

AR texnologiyalarining an’anaviy usullar bilan solishtirganda afzalliklari

Ko‘rsatkich	An’anaviy usul	AR texnologiyasi	O‘sish foizi
Motivatsiya	45–55 %	85–92 %	+70 %
Bilimni esda saqlash	50–60 %	85–90 %	+65 %
Amaliy ko‘nikmalar	40 %	88 %	+120 %
Individual yondashuv imkoniyati	past	yuqori	–

O‘zbekiston Respublikasida kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish imkoniyatlari va xavf-xatarlarini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan tahlil natijalari

Birinchidan, mamlakatda yosh avlodning (15–30 yosh) 97 foizdan ortig‘i zamonaviy smartfonga ega bo‘lib, bu arzon AR-ilovalarni (Merge Cube, Zappar, Quiver) ommaviy joriy etish uchun keng baza yaratadi. Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030”

strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli[3] Farmonida va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son4 Farmon doirasida davlat tomonidan raqamli ta'limni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Uchinchidan, o'quvchilar hamda yosh o'qituvchilarning yangi texnologiyalarga qiziqishi yuqori bo'lib, xalqaro tajribani tez o'zlashtirish imkonini beradi.

Hozirgi bosqichda asosiy cheklovlar quyidagilardan iborat: o'zbek tilida sifatli AR-kontent deyarli yo'qligi, yuqori sifatli AR-qurilmalar (masalan, Microsoft HoloLens) narxining juda qimmatligi, AR bo'yicha malakali pedagog kadrlar sonining o'ta kamligi (2025-yil holatiga ko'ra 150 nafardan oshmagan) hamda hududiy maktablarda internet tezligi va barqarorligining yetarli emasligi.

Eng muhim imkoniyatlardan biri – Janubiy Koreya (KOICA), Germaniya (GIZ) va UNESCO kabi donor tashkilotlarning grant dasturlari orqali tajriba va texnologiyalarni arzon yoki bepul olishdir. Shuningdek, IT Park rezidentlari va mahalliy startaplar uchun soliq imtiyozlari va grantlar mavjud bo'lib, o'zbek tilida AR-kontent yaratishni tezlashtirish mumkin. 2026–2030 yillarga mo'ljallangan yangi davlat dasturiga "AR ta'lim" yo'nalishini kiritish orqali jarayonni markazlashgan tarzda boshqarish realdir.

Taklif etilayotgan choralar (amaliy tavsiyalar)

O'zbekiston ta'lim tizimida AR texnologiyalarini muvaffaqiyatli joriy etish uchun quyidagi amaliy choralar taklif etiladi:

1. 2026-yildan boshlab pedagogika yo'nalishidagi barcha magistrlarga "AR texnologiyalari" maxsus kursini majburiy qilish.
2. Arzon va o'zbek tilida ishlaydigan platformalardan (Merge Cube, Zappar, Quiver, CoSpaces Edu) boshlab, 2027-yilgacha har bir viloyatda kamida bitta AR sinov maktabi ochish.
3. O'zbek tilida 200 ta AR darslik va interaktiv material yaratish uchun 2026–2028 yillarda IT Park orqali startaplarga 10 mlrd so'mlik grant ajratish.
4. Har yili 500 nafar o'qituvchini Janubiy Koreya va Singapurda AR bo'yicha malaka oshirishga yuborish (KOICA va boshqa donor dasturlari hisobidan).
5. 2030-yilgacha barcha yangi qurilgan maktablarda AR-laboratoriyalar uchun alohida xona va minimal infratuzilma (Wi-Fi 6, planshetlar) loyihalashtirishni majburiy qilish.

O'zbekistonda AR texnologiyalarini joriy etish uchun tavsiya etilgan platformalar.

Platforma nomi	Qurilma talabi	O'zbek tili qo'llab-quvvatlashi	Narxi (bir o'quvchi uchun yillik)	Eng mos fanlar
Merge Cube	Oddiy smartfon	To'liq (o'zbekcha kontent bor)	3–5 $	Fizika, kimyo, biologiya, geografiya
Zappar	Smartfon + planshet	Qisman	0–10 $ (freemium)	Tarix, adabiyot, san'at
CoSpaces Edu	Smartfon yoki kompyuter	To'liq	80–120 $ (maktab litsenziyasi)	Informatika, 3D modellashtirish
Quiver	Smartfon	To'liq	5–7 $	Boshlang'ich sinflar, rangtasvir
HP Reveal (sobiq Aurasma)	Smartfon	Qisman	Bepul	Har qanday fan (markerli AR)

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari zamonaviy ta'limning eng samarali vositalaridan biri bo'lib, o'quvchilarning motivatsiyasini, bilimni mustahkamlash darajasini va amaliy ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirishi ilmiy jihatdan isbotlangan. O'zbekiston sharoitida ARni joriy etish uchun yetarli infratuzilma (smartfonlarning keng tarqalganligi), davlat siyosati qo'llab-quvvatlashi va yosh avlodning texnologiyaga qiziqishi kabi kuchli tomonlar mavjud. Taklif etilgan choralar – arzon platformalardan boshlash, mahalliy kontent yaratish, o'qituvchilarni qayta tayyorlash va davlat–xususiy sheriklikni rivojlantirish – 2030-yilga kelib respublika ta'lim

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni: https://lex.uz/ru/docs/-5030957

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmon: https://lex.uz/ru/docs/-5841063

muassasalarining kamida 60–70 % ida AR texnologiyalarining doimiy qo‘llanilishini ta’minlaydi. Shunday qilib, AR texnologiyalarini o‘z vaqtida va tizimli joriy etish O‘zbekiston ta’lim tizimini raqamli transformatsiya yo‘lida yangi sifat bosqichiga olib chiqadi hamda xalqaro ta’lim maydonida mamlakatimiz raqobatbardoshligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Azuma, R. T. (1997). A Survey of Augmented Reality. Presence: Teleoperators & Virtual Environments, 6(4), 355–385.
2. Hamrayev, S. (2022). Zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Xo‘jayev, N., & Umrzakov, A. (2024). Virtual va kengaytirilgan reallikning ta’limdagi imkoniyatlari. O‘zbekiston Milliy Universiteti Axborotnomasi, 1(1), 89–96.
4. To‘rayeva, D. B. (2023). Interfaol ta’lim texnologiyalari. Pedagogika jurnali, 4(2), 45–52.
5. Qodirov, A., & Karimova, F. (2024). O‘zbekistonda raqamli ta’limning dolzarb muammolari. Ilmiy axborotnoma, 2(45), 112–119.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasi haqidagi Farmoni. (2019). https://lex.uz/docs/4540621
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF–60-son Farmoni. https://lex.uz/docs/5841068
8. Abduqodirov, A., va boshq. (2023). Ta’limda sun’iy intellekt va AR texnologiyalari. Toshkent: O‘zbekiston.
9. Radjabov, O. (2024). Zamonaviy pedagogik texnologiyalar (o‘quv qo‘llanma). Samarqand: SamDU nashriyoti.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

Mas’ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali 26.09.2023-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.